# Mavzu:Zulfiya ijodi

Adabiyot

Abdukadirova M.M.

# ZULFIYA ijodi



(1915-1996)



*1915-yili 1-martda* Toshkent shahrining qadimiy Degrez mahallasida tavallud topgan.

- Avval boshlang‘ich maktabda, so‘ng xotin-qizlar bilim yurtida tahsil olgan.
- 1935-1938-yillarda O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Til va adabiyot instituti aspiranturasida o‘qigan.



- **1953-yildan 1980-yilgacha, qariyb o‘ttiz yilga yaqin respublikamizda keng tarqalgan «Saodat» nomli xotin-qizlar jurnalida bosh muharrir bo‘lgan.**

# Ilk she'r

- Zulfiyaning ilk she'ri
- 1931-yilda "Ishchi" gazetasida bosilgan.

# IJOD PALLASI

**Zulfiyaning dastlabki she’rlari «Hayot varaqlari» nomi bilan 1932-yilda bosilib chiqqan.**



- «She’rlar» va «Qizlar qo‘shig‘i» (1938-yil);
- «Uni Farhod der edilar» (1943-yil);
- «Hijron kunlarida» (1944-yil);
- «Dalada bir kun» (1948-yil);
- «Tong qo‘shig‘i» (1953-yil);
- «Yuragimga yaqin kishilar» (1958-yil);
- «Kuylarim sizga» (1965-yil);
- «O‘ylar», «Shalola» kabi o‘nlab she’riy to‘plamlari chop etildi.

# MANGU SADOQAT TIMSOLI

- Zulfiya Hamid Olimjon bilan oila qurgan. Biroq ular orzularga to‘la hayot kechirayotgan pallada - 1944-yili mashina avariyasi tufayli turmush o‘rtog‘idan ayriladi. Shundan so‘ng umr bo‘yi o‘z muhabbatiga sodiq qolib, Hamid Olimjonning ishlarini sabot bilan davom ettiradi.



# Tarjimachilik

- **S. Pushkin, M. Yu. Lermontov. N. A. Nekrasov, M. Voqif, L. Ukrainka, M. Dilboziy, S. Kaputikyan, E. Ognetsvet, Mustay Karim, Amrita Pritam, Ye. Bagryana** *va boshqalarning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan.*

- **O`zining asarlari ham ko'plab chet tillarda, shuningdek, qardosh turkiy xalqlar tillarida nashr etilgan.**

# E'TIROF



- Uning jahon minbarlaridan yangragan she'rlari Sharq ayolining aql-u zakosi, fazl-u kamolining yorqin ifodasi sifatida millionlab she'riyat muxlislariga odamiylik, muhabbat va sadoqatdan saboq bergan.

Islom Karimov

# Eslab qoling!



## ZULFIYA:

- Xalqaro Javaharlal Neru (1968);
- "Nilufar" (1971) mukofotlari hamda
- Hamza nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofoti (1970) laureati;
- Bolgariyaning "Kirill va Mefodiy" (1972) ordeniga sazovor bo‘lgan.

# Zulfiya farzandlari va nevaralari davrasida.





Zulfiya 1996-yil 1-avgust kuni vafot etgan.

Qabri Chig`atoy qabristonida.

# ZULFIYA NOMIDAGI DAVLAT MUKOFOTI




- 1999-yil 10-iyunda ta’sis qilingan.
- Maktab, litsey, kollej va oliy o‘quv yurtlarida a’lo xulki, zukkoligi, donoligi, tashabbuskorligi, o‘qishdagi muvaffaqiyatlari bilan alohida iste’dodini namoyon qilib ta’lim olayotgan, istiqlol g‘oyalarini amalga oshirish yo‘lida astoydil mehnat qilayotgan 25 yoshgacha bo‘lgan iqtidorli qizlarga adabiyot, madaniyat, san’at, fan, ta’lim sohalaridagi alohida yutuqlari uchun beriladi.

# Shoira Zulfiya sharafiga qo`yilgan haykal



# BILIMINGIZNI SINANG!




- Zulfiya qanday she’riy to‘plamlar va dostonlar muallifi?




- Shoira asarlari qaysi xorijiy tillarga tarjima qilingan?




- Zulfiya Isroilovaning jamoat arbobi sifatidagi faoliyati haqida gapirib bering.



# ZULFIYA SHE’RLARIDAN NAMUNALAR

# NEVARA
# (ULUG‘BEKKA)

**Nevaram quyunday otilib kirib,**
**Qalamim tagidan qog‘ozni yular.**
**Damda varrak yasab ko‘kka uchirib,**
**Izidan qop-qora ko‘zlari yurar.**
**Varrak tortar shekil, murg‘akni kuch-la**
**Oyoq tirab siltar dakani kibor.**
**Ayrilib qog‘ozdan, she’rdan va hushdan**
**Boqaman varrakboz jonga baxtiyor.**
**Naq bobosi siyoq zehnday tiyrak,**
**Ko‘kish alangada yonar soch-u qosh…**

# BOG‘LAR QIYG‘OS GULDA

**Bog‘lar qiyg‘os gulda - yaxlit bir chaman,**
**Har daraxt anvoyi bir tarovatda.**
**Bir kaft bog‘ mehnat-u hosilga vatan,**
**O‘zga ko‘rk,o‘zga rang har bir daraxtda.**
**Har navda bir gulda,**
**har gulda bir ro‘y,**
**Har daraxt bargi bir dunyo hikoya.**

# MEN O‘TGAN UMRGA



Hayot kitobimni bexos varaqlab,
Men o‘tgan umrga achinmay qo‘ydim.
Tabassum o‘rnida kuldim charaqlab,
Suyish kerak bo‘lsa - telbacha suydim.
Kiyganim ipakmi, chitmi yo kimxob,
Yurak boyligidan qilmabman parvo…



# O‘ylab ko‘ring!

- «Nevara» she’rida shoiraga ta’sir ko‘rsatgan holat nima edi?
- Shoira tog‘day tayanch -«orqa tog‘» deganda nimani nazarda tutadi?
- «Men o‘tgan umrga» she’ridagi lirik kayfiyatni qanday izohlagan bo‘lar edingiz?

# Uyga vazifa:

1. Zulfiya ijodini o`qing.
2. Shoira ijodidan she`r yodlang.

ACADEMIC IHT LYCEUM

TIIAME



# E'TIBORINGIZ uchun rahmat!